

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.X.Hakimov, A.A.Abdumalikov, Ё.З.Нуриддинов Объективные и субъективные факторы в возникновении первого периода восточного ренессанса (IX-XII вв.).....	5
D.E.Normatova, S.N.Muxammadova Dialektikaning paydo bo'lishi va uning namoyandalari.....	12
N.M.Axmadiyev Milliy o'zlikni anglashda Vatanparvarlik tamoyilining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	15
Д.А.Исаева Влияние медиа на развитие античной философской мысли	18
I.A.Asatulloev Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida diniy mavjudlikni anglashning axloqiy ahamiyati	22
O.B.Shokirov Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida san'at imkoniyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	28
R.B.Abduraxmonov Oilaviy zo'ravonlik tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	32
X.J.Toshpo'latov Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda viktimologik profilaktika tizimini yuksaltirishning falsafiy masalalari.....	36
A.I.Abdullaxo'jaev Is'hoqxon ibrat va "Tabodili zamon": ijtimoiy-falsafiy tahlil	39
I.T.Yuldashev Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili	43
A.A.A'zamjonov Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda amaliy san'atning badiiy-ijodiy imkoniyatlari.....	47
M.K.Soipova Fazl Ibn Ahmad ta'limotida ontologik masalalarning qiyosiy tahlili	51
S.F.Abdusattarova Models of social processes: a philosophical perspective on the interaction between humans and society.....	55
S.R.Xoldarov Zamonaviy jamiyatda konfutsiychilikni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari	60
Sh.B.Samanova Atrof-muhit muvozanatida ekologik madaniyatning o'rni.....	66
R.Orziboyev G'oyaviy birdamlik tushunchasi va uning falsafiy tahlili.....	70

SIYOSAT

Z.Sh.Turg'unboyev O'zbekiston va Afg'oniston savdo-iqtisodiy integratsiyasi ahamiyati: tahlil va kelajakdagi imkoniyatlar	74
Ф.М.Бафоев Проблемы нелинейного воздействия и неравновесность в современной мировой политике	80
A.To'xtasinov Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	84
U.U.Sattarov O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy asoslar.....	88
B.T.Shokirov Kiberxavfsizlikning davlat siyosat darajasiga ko'tarilishi: zamonaviy tahdidlar va strategiyalar	94



UO'K: 111:140

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK MASALALARNING QIYOSIY TAHLILI

FAZL IBN AHMAD'S TEACHINGS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF ONTOLOGICAL ISSUES

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОНТОЛОГИЧЕСКИХ ВОПРОСОВ В УЧЕНИИ ФАЗЛА ИБН АХМАДА



Farg'ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

F
a
z
l**Аннотация**

В данной статье представлен философский анализ идей Фазла ибн Ахмада о бытии и философии пространства, изложенных в его трудах "Иддатул Укул и Умдатул Ма'кул" (Обещание разума и Основа того, что разумно). В построении Нового Узбекистана учение Руми, особенно идеи Фазла ибн Ахмада, играют важную роль в воспитании духовно зрелых людей и повышении их морального и интеллектуального уровня в условиях современных сложностей. В статье подчеркивается эффективность использования трактата Фазла ибн Ахмада "Иддатул Укул и Умдатул Ма'кул" для содействия социальному прогрессу, общественному благосостоянию и удовлетворению человеческих потребностей.

a

Abstract

This article presents a philosophical analysis of Fazl ibn Ahmad's ideas on existence and the philosophy of space as expressed in his works "Iddatul Uqul and Umdatul Ma'qul" (The Promise of Intellects and the Foundation of Intellectually Acceptable Matters). In building the New Uzbekistan, the teachings of Rumi, particularly the ideas of Fazl ibn Ahmad, remain essential in shaping spiritually mature individuals and elevating their moral and intellectual development during these complex times. The article highlights the effective use of Fazl ibn Ahmad's treatise "Iddatul Uqul and Umdatul Ma'qul" in promoting social progress, societal welfare, and addressing human needs.

“

b'zlar islom, ijtimoiy, il, borliq, makon, zamon, taraqqiyot, insondialektik, sinergetik, deterministik, ma'naviy milliy va

d

Ключевые слова: ислам, социальный, знание, бытие, пространство, время, развитие, диалектический, синергетический, детерминистский, духовный, национальные и общечеловеческие интересы, прогрессивное развитие, этические ценности, эстетика, политический, правовой, демократический.

l

Key words: Islam, social, knowledge, existence, space, time, development, dialectical, synergistic, deterministic, spiritual, national and universal interests, progressive development, ethical values, aesthetic, political, legal, democratic.

q

u

l

KIRISH

Borliqning mohiyati, cheksizligi va inson hayotining unga bog'liqligini o'rganish falsafaning mazmunini tashkil qiladi. Bu muammolar barcha faylasuflarini qiziqtirib kelgan. Zero, hozirgi borliq masalasi ko'p jihatdan muammoli bo'lib qoldi, ya'ni dunyoda ekologik tanglik tobora kuchayib bormoqda, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining salbiy ta'siri yaqqolroq sezilmoqda, yadro urushi xavfining dahshatli qiyofasi yorqin ko'rinish kasb etmoqda. Borliqning bunday muammosi nafaqat tabiiy jarayon sifatida, balki insonning butun hayot yo'li davomida anglab yetiladi. U obyektiv reallikda muayyan tarzda namoyon bo'lib, voqealar hosil qiladi hamda mavjudlikni namoyon etadi.

t

u

l

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYAm
a

u

l

"

Ushbu maqolada Fazl ibn Ahmadning "Iddatul uqul va umdatul ma'qul" (Aqllarning va'da berishi va aqllarga ma'qul narsalarning asosi) risolasining mazmun-mohiyati, konseptual asoslari, borliq tushunchasi va aksiologik asoslarini tadqiq etish maqsad qilingan.

Mutafakkir asarda borliq-olam va har qanday turdagi mavjudlikni ifodalaydigan falsafiy kategoriya bo'lib, faylasuflar tomonidan turli g'oyalar berilgan. Tasavvufda borliq tushunchasi vahdati vujud, vahdati shuhud va vahdati mavjud nazariyasi tahlil qilingan. Mazkur nazariya ham falsafiy, ham irfoniy asoslarga tayanadi.

Vahdat ul-vujud nazariyasi qadimgi Yunonistonda Aflotun (m.a.427-347yy), Flutin (m.a.270-204yy) qarashlari bilan umumiyliigi bor.

Aflotun (Platon) butun dunyo haqiqiy borliqning, ya'ni "g'oyalar dunyosining" mahsuli, soyasidir, deb ta'limot bersa,[1] Flutin (Plotin) "haqiqatni bitta va birlikni butun borliqning asli va asosiy manbai deb tushunadi. Uningcha, barcha mavjudot o'sha birinchi mabda (boshlang'ich joy, nuqta) dan sizib chiqib, nihoyatda unga qaytib boradi." [2]

Tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir. Ammo shunisi borki, so'fiylar o'zlarini har doim faylasuflarga va kalom ahli (shariat ahli ulamolari)ga qarama-qarshi qo'yib kelganlar. Nega? Chunki kalom ahli qur'on oyatlari, Payg'ambar hadislarini zohiran o'rganish, olam yaratilishi va tuzilishini aynan diniy tasavvurlar bilan tushuntirishdan nariga o'tmas, islomni ham, immonni ham aql bilan qabul qilish va ahkomlarning rasm-rusumlari, odatlarni mustahkam saqlash uchun kurashganlar. Shu bois so'fiylar ahli kalomni "muqallidlar", ya'ni o'tganlarga taqlid qiluvchilar deb ataganlar. Sharq faylasuflari ya'ni, Forobiy, Ibn Sino, Al-Kindiy, Ibn Rushdlar yunon donishmandlari Aflotun, Arastu va boshqalarning tajriba va kuzatuv, mantiqiy tahlil va umumlasmalar orqali tabiat, inson va jamiyatni tadqiq etish yo'lidan borganlar. Ko'rinadiki, ahli kalomda ham, ahli hikmatda ham aqliy-mantiqiy ilm, tajriba qilish, bilim asosiy o'ringa ega bo'lgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ab-u Nasr Forobiy borliq muammosini hal qilishda "vujud", "vujudi vojib" (vojib ul-vujud) va "vujudi mumkin" (yaratilgan vujud) kabi atamalarni falsafiy kategoriyalar darajasiga ko'taradi. Mutafakkir borliq falsafasini hal etishda quyidagi uch holatga e'tiborini qaratgan:

- "Forobiy asarlarida "Vojib" (zaruriyat, zarurlik), "Mumkin" (yaratilgan) o'rtasidagi farqlarni aniqlab, "vujud vojib" barcha mavjud yoki paydo bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarning birinchi sababi ekanligini uqtiradi.

- Forobiy birinchi sabab sifatida "vojib ul-vujud" o'zga sabab yoki turtkiga muhtoj emas, uning zotiga nuqson va qusurlar, ziddiyat, nomutanosiblik, beqarorlik, bilmaslikdan bilishga qarab yo'nalish kabi jarayon yo'q. "Vujudi mumkin"da esa, aksincha, doimo o'zgarishda, ziddiyatli, munosabatlarda, unda barcha narsalar oddiqlikdan murakkablikka, tartibsizlikdan tartiblikka, norasolikdan kamolotga qarab yuz tutadi".[3]

Vahdat ul – vujud (borliqning bir butunligi) - abadiy yagona Allohgina bor, moddiy olam esa ro'yo deb hisoblovchi ta'limot. Bu ta'limotga ko'ra, moddiy olam va narsalar dunyosi haqiqiy emas, haqiqat faqat Allohda mujassamlangan, moddiy olam Allohning tajalliysidir, shu'lasidir. Ushbu ta'limot tasavvufdagi eng munozarali mavzulardandir.

"Vahdat ul-shuhud, ya'ni ideal (Alloh) bu olamda o'zining belgisi (shuhud)ni namoyon qiladi. Borliqni ana shu belgilar asosida inson vujudida Uning mukammallik belgisi borligi bilinadi. Inson vujudini o'rganish bilan Borliq (Vahdat) tasavvur qilinadi. Bunday qarash Ab-u Bakr Kolobodiy, Yusuf Xos Hojib, Aziziddin Nasafiy asarlarida aks etgan." [4]

Vaxdatul-mavjud moddiy olam Xudo vujudida mavjud, biroq Xudo olamga singib ketgan emas (paneteizm) degan g'oyani ilgani suradi. Unga ko'ra, Xudo koinot qamrab olgan barcha narsalarda (ajzo) mavjud, shu bilan birga ulardan tashqari mavjuddir. Xudo koinotni qamrab olgan, ammo koinot Xudoni qamrab ola olmaydi. A'zo egasi a'zoni anglay olgani holda, a'zo o'z egasini anglay olmagan kabi Xudo koinotni anglaydi, ammo koinot uni anglay olmaydi.

Fazl ibn Ahmad "Iddatul uqul va umdatul ma'qul" [5] (Aqllarning va'da berishi va aqllarga ma'qul narsalarning asosi) risolasida Yaratuvchining vahdoniyatini (yakka-ligi), borligini, maxluqlarning sifatleri va alomatlaridan pokligini tahlil qilib, o'nta hujjat keltiradi.

وقد اوردت في ذلك عشرة براهين ضرورته الصدق و الظهور: فاول ذلك الوجود المطلق اذ الوجود ينقسم الى الواجب والكائن و استحالة وجود العالم ثابت كما سيأتي في اثبات حدوثه، فهو يضطر إلى ازلى واجب الوجود ليكون سبب وجوده والا لم يكن وجوده [6]اولى من العدم.

Mazmuni: bu mavzuda ishonchli o'nta hujjat keltirdim. Birinchi xujjat vujud al-mutlaq (umumiy mavjudlar)dir. Chunki vujud: vojib, koyin (imkoniyatli) va imkonsizga bo'linadi. Olamning vujudini vojibligi uning paydo bo'lganini isbotlash o'rnida keladi. Bu olam - azaliy va mavjudligi vojib (shart) bo'lgan zotga muhtoj bo'ladi. Bu Zot olamning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Agar vojib al-vujud (mavjudligi shart) bo'lgan zot unga sabab bo'lmasa, olamning mavjudligi ma'dum (yo'q)ligidan yaxshiroq bo'lmaydi.

Tadqiqotchi J.Xolmo'minov "Vujud" haqidagi bahslar ahli sunna val jamoa e'tiqodiga ergashuvchi ash'ariy mutakallimlardan boshlanganligini ta'kidlaydi. Mutakallimlar "Vujud" bilan bog'liq tushunchalarni quyidagicha izohlaganlar:

1. "Vojib ul-vujud – Alloh taolo mavjudligining zarurligi.

2. Mumkin ul-vujud – "Mumkin" sanalgan vujudlarni Alloh yaratmasa ham bo'lardi, ammo yaratdi.

3. Mumtane' ul-vujud – mavjud bo'lishi mumkin bo'lmagan vujud. Ya'ni, Allohning sherigi mavjud bo'lishi mumkin emas."[7]

Demak, Fazl ibn Ahmad ta'limoti ash'ariy mutakallimlarning "vujud" masalasida umumiylikka ega hisoblanadi. Ya'ni, vojib ul-vujud (mavjudligi shart) bo'lgan Zot olam mavjudligining sababidir.

الثاني وجود الكثرة المقترنة بالوحدة في جواهر العالم اجمع و استحالة تعليل أحدهما بالآخرى كما سنبين فيضطر كلاهما إلى [8]أزلى منزله عن الكثرة لتعدلا به.

Mazmuni: Ikkinchi hujjat – olam javhari mohiyati majmu'sida yagona narsaga yonma-yon bo'lgan ko'p narsalarning mavjudligi, bu ko'p narsalarning birini ikkinchisiga sabab qilish imkonsiz bo'ladi. Biz bu ikkisi - ko'payishdan pok bo'lgan azaliy Zotga muhtoj bo'lishini quyida bayon qilamiz.

"Plyuralizm (lot. pluralis - ko'plik, ko'pxillik, ko'psonlik) vakillarining aytishicha borliqning asosida ko'plab, bir – biridan mustaqil modddiy va g'oyaviy negizlar yotadi. Ayrim plyuralistlar moddiy negizlarga urg'u berishadi. Ularni materialistik plyuralizm vakillari deyish mumkin. Qadimgi Xitoy, qadimgi Hind, qadimgi Yunon materialistlari borliq olov, suv, havo va tuproqdan tashkil topgan deyishgan. Boshqa yo'nalishdagi plyuralistlar esa ma'naviy, g'oyaviy substansiyalarga ustuvorlik berishgan. Max va Avenarius dunyoning asosida yotuvchi elementlar turli shakldagi sezgilardan iboratdir deb hisoblaydi. Shuningdek dunyoning asosida ko'plab ham moddiy, ham ma'naviy (bir xil darajada) elementlar yotadi. (Demokritda bu elementlar atomlar, Leybnitsda g'oyaviy manadalar) deb hisoblovchi plyuralistlar ham bor."[9]

الثالث التركيب و التأليف العام الموجودات العالم كلها اذ يضطر كلاهما الى مؤلف متعال عن هذه الصمة أولاً وأبداً.

Mazmuni: Uchinchi hujjat – umumiy olam mavjudotlarini tarkib topishi va tuzilishidir. Chunki borliqning tarkibi hamda tuzilishi vojib (shart) bo'lgan oliy Zotga muhtoj bo'ladi.

Forobiy olamni ikki ko'rinishda: "Vujud-u vojib" (olloh) va "vujudi mumkin" (barcha moddiy va ruhiy narsalar) misolida talqin qiladi, barcha narsalar "vujudi vojib" tufayli yashash huquqiga ega bo'ladi. Ular o'zaro bir-biri bilan sababiy tarzda bog'lanadi. Sababsiz oqibat bo'lmaganidek, oqibatsiz sabab ham bo'lmaydi, deydi Forobiy. Vujudi vojib birinchi sabab sifatida o'zga sabab yoki turtkiga muhtoj emas. U mutlaq borliq va donishmandlikning ifodasidir. Vujudi mumkin esa yaratiladi, lekin o'zi yaralmaydi. U doimiy o'zgarishda, ziddiyatli munosabatlarda, unda barcha narsalar kamolotga qarab rivojlanadi."[11] Olam javhar (substansiya) va araz (aksidensiya)dan iborat. Araz o'z vujudida javharg muhtoj. Uning vujudidagi javhar esa besh qismdan iborat: hayulo, ko'rinish, jism, aql va nafs. Hayulo ko'rinish (surat) unga ko'chadigan yoki o'tadigan javhar hisoblanadi.

A.Boltayevning fikricha, "Ibn Arabiy falsafada "illat ul-vujud" ("borliqning vujudga kelish sababi") konsepsiyasini rad etadi va o'zining ta'limotidagi "Qayyumiyyatul-Haq" ("Xudoning bo'linmas abadiyligi") konsepsiyasi bilan almashtirib tushuntiradi. Uning ishonishi bo'yicha har qanday borliq "Qayyumiyyatul illat" ("Sabab abadiyligi") ning o'zidir. Bularning hammasi abadiy bo'lib, Xudoning abadiyligi keyingisi (ya'ni "Qayyumiyyatul illat") ning mohiyati bilan bog'liq".[12] Ibn Arabiy ta'limoti bo'yicha borliq Haqning o'z-o'zidan mavjud kuchi. Xudoning abadiyligi borliqning abadiyligini shart qiladi. Bunga esa o'z navbatida faylasuflarning borliqning "al-aql ul-avval" ("ibtido aql") dan vujudga kelganligini rad etadi.

XULOSA

Bu hujjatlardan quyidagicha xulosa chiqadi:

Demak, Fazl ibn Ahmad borliqning mavjudlik shakllariga alohida e'tibor qaratib, asosiy oraz (mohiyat) sifatida "vojib" (xudoning mavjudligi zaruratini) qo'yadi

الرابع الحركة الشاملة لأجسام العالم كلها إذ من المحال كون الجسم محركاً متحركاً كما يستحيل كونه فاعلاً قابلاً و نحن نبين [10] استحالة قوة طبيعية يتحرك الجسم بها ألا كما ذهب إليه الطبيعيون، فيضطر إلى محرك أزلى ينتفى النهاية عن قوته.

Mazmuni: To'rtinchi hujjat – butun olam jismlarini o'z ichiga olgan harakatdir. Chunki jismning harakatlanuvchi va harakatlantiruvchi bo'lishi imkonsizdir, xuddi uning ham bajaruvchi va qabul qiluvchi bo'lishi imkonsiz bo'lganidek. Biz tabiatshunoslar aytganidek – "jism abadiy tabiiy quvvat bilan harakatlanadi" degan fikrlarining amri maholligini bayon qilib beramiz. Shunday ekan, jism - quvvatining nihoyasi bo'lmagan bir harakatlantiruvchiga muhtoj bo'ladi.

"Olamdagi har qanday jarayon harakat tufayli sodir bo'ladi. Har qanday o'zgarish – harakatdir. O'zgarishlar na faqat moddiy obyektlarga, balki ma'naviy, g'oyaviy obyektlarga ham xosdir. Har qanday (moddiy va g'oyaviy) obyektning mavjudligi undagi harakat va o'zgarishlar tufayli namoyon bo'ladi. Shu sababli harakat borliqning asosiy mavjudlik usulidir".

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi.-T.: Sharq. 2003. – 46 - 132 b.
2. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. Tasavvuf va inson. -T.: Adolat. 2001. – 20 b.
3. Falsafa: qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). – T.: "Sharq", 2004. – B. 431.
4. Komilov N. Tasavvuf. II kitob. Tavhid asrori. – T.: O'zbekiston – G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1999. – B. 76.
5. رضوى قدس آستان انتشارات و چاپ مؤسسه چاپ، مشهد. الاصول مباني ايضاح في المعقول عمدة و عدةالعقول بخاري خلف بن احمد بن فضل. 1371هـ.ش. 96م. 1993م.
6. رضوى قدس آستان انتشارات و چاپ مؤسسه چاپ، مشهد. الاصول مباني ايضاح في المعقول عمدة و عدةالعقول بخاري خلف بن احمد بن فضل. 1371هـ.ش. 96م. 1993م.
7. Xolmo'minov J. Tasavvuf ontologiyasi. – T.: Yosh avlod matbaa. – B. 38
8. رضوى قدس آستان انتشارات و چاپ مؤسسه چاپ، مشهد. الاصول مباني ايضاح في المعقول عمدة و عدةالعقول بخاري خلف بن احمد بن فضل. 1371هـ.ش. 96م. 1993م.
9. To'rayev B. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyati. Risola. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2011. – B. 24.
10. رضوى قدس آستان انتشارات و چاپ مؤسسه چاپ، مشهد. الاصول مباني ايضاح في المعقول عمدة و عدةالعقول بخاري خلف بن احمد بن فضل. 1371هـ.ش. 96م. 1993م.
11. Falsafa: qomusiy lug'at. (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). – T.: "Sharq", 2004. – B. 431.
12. Boltayev A. Muhyiddin Ibn Arabiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Falsafa fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Buxoro, 2023. – B.75.
13. رضوى قدس آستان انتشارات و چاپ مؤسسه چاپ، مشهد. الاصول مباني ايضاح في المعقول عمدة و عدةالعقول بخاري خلف بن احمد بن فضل. 1371هـ.ش. 96م. 1993م.
14. To'rayev B. Borliq: mohiyati, shakllari, xususiyati. Risola. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2011. – B. 26.